



The background of the poster features a collage of images. At the top, there are three young adults (two women and one man) sitting at a table, looking at a laptop and discussing something. Below them is a large, modern glass building with a prominent dome, likely the University of Copenhagen's main building, shown at night with lights reflecting in the water in front. The overall composition uses geometric shapes like triangles and rectangles in shades of red, grey, and blue to frame the text and images.

PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS INTERNATIONAL CONFERENCE

2023

ISBN 978-955-3605-86-4

© Sp. z o. o. "CAN", 2023

© Authors, 2023

**PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS: a collection scientific works
of the International scientific conference (17 October, 2023) - Copenhagen:2023.
Part 26 – 85p.**

Editorial board:

Tone Roald, PhD Associate Professor of Psychology University of Copenhagen

Elin Eriksen Ødegaard, Professor, Western Norway University of Applied Sciences

Mariane Hedegaard, Professor Emerita, Copenhagen University, Denmark

Magnus Englander, PhD Associate Professor of Psychology Malmö University, Sweden

Paul Sullivan, PhD University of Bradford Bradford, United Kingdom

Mathias TraczykSøren, PhD

Thiesen Amanda, PhD

Nybroe Rohde, PhD

Languages of publication: dansk, English, русский, беларуская, limba română,
uzbek,

The compilation consists of scientific researches of scientists, post-graduate students and students who participated International Scientific Conference "PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS". Which took place in COPENHAGEN on 17 October, 2023.

Konferencehandlinger anbefales til videnskabsmænd og lærere i højere læreanstalter. De kan bruges i uddannelse, herunder undervisning i postgraduate studier, forberedelse til opnåelse af bachelor- og kandidatgrad. Gennemgangen af alle artikler blev udført af eksperter, materialer er i henhold til forfattere copyright. Forfatterne er ansvarlige for indhold, undersøger resultater og fejl.



PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS

Part 26
October 2023

Collection of Scientific Works

Copenhagen "Science Edition" 17 October 2023

TABLE OF CONTENTS

BAHRONOVA GULNOZA	7
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLANI RIVOJLANTIRISHDA O'YINING ROLI	
I.D.SHERALIEVA	10
QO'ZILARNING IMMUN TIZIMIGA VAKSTINANING TA'SIRI	
XUSHBAKOV SHO'H RATJON BAXTIYOR O'G'LI	13
O'ZBEKİSTONDA DİNİYLİK VA DUNYOVIYLİK MUNOSABATLARI	
JUMABOEVA MUNIRAKHAN	17
MEDICINAL PROPERTIES OF THE PLANT TARAXACUM OFFICINALIS L.	
SHONAEVA AYGERIM ASILBEK QIZI	19
ABAЙ ҚҰНАНБАЕВ-“ҚАЗАҚТЫҢ БАС АҚЫНЫ”	
ISOMIDINOVA KAMOLA AHMADJONOVA	21
UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA O'QITISH METODIKASI	
НУТФУЛЛАЕВА ЛОБАР НУРУЛЛАЕВНА	24
Н.Ф.ЁДГОРОВА	
ОСНОВНЫЕ МЕТОДЫ ФОРМООБРАЗОВАНИЯ ПРИ РАЗРАБОТКЕ МОДЕЛЕЙ ШВЕЙНЫХ ИЗДЕЛИЙ	
SHUKUROVA MADINA ASKAROVNA	28
A BRIEF OVERVIEW OF THE DEVELOPMENT OF THE LEXICAL- CONCEPTUAL FIELD OF ETHICS IN THE XVITH-XVIIITH CENTURIES	
MAMASAI DOVA MUHABBATXON	34
NISHONOVA MARJONAXON NIZOMIDDIN QIZI	
BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA INTEGRATSION TA'LIM	
MAMASAI DOVA MUHABBATXON	37
PO'LATSOVA ORASTAXON QAHRAMONJON QIZI	
BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA XORIJ TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH	
IBRAGIMOVA MUNISA SAN'ATOVNA	42
CHALLENGES OF TEACHERS FACING WHILE FOSTERING A SPEECH CULTURE IN THEIR CLASSROOMS	
UZOQOVA Z.J	45
TO'XTAYEV B.Y	
ANZUR (ALLIUM SUVORIWII) PIYOZININING O'SISHI, RIVOJLANISHINI MORFO-BIOLOGIK VA XO'JALIK NUQTAI NAZARDAN BAHOLASH	
RAHIMOVA ZEBINISO SHOMANSUR QIZI	55
JARGONLAR PRESUPPOZITSIYASI	
BOLTAYEVA DILSORA DONIYOR QIZI	61
DINİY BAG'RİKEGLIKNI TA'MINLASH-BARQAROR TARAQQIYOT GAROVI	
TURSUNOV MIRZO MAHMUDOVICH	
RAHMATULLAYEVA ANORA TO'LQIN QIZI	64

"YALQOVLIK" KONSEPTINING INGLIZ VA O'ZBEK MILLIY MADANIYATIDA IFODALANISH USULLARI QO'SHQARBAYEVA GULBANU RAXIMOVNA	71
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI KARAMATDINOVA GAWHAR TAYIROVNA	74
QAZI MÁWLÍK SHIGARMALARI TÍLÍNÍN FONETIKALIQ ÓZGESHELÍKLERÍ	
UMAROV BOTIR IBODULLA O'G'LÌ ABU RAYHON BERUNIY DUNYOQARASHI EVOLYUTSIYASINING IJTIMOIY-MADANIY VA MAFKURAVIY KELIB CHIQISHI	79
KARIMBOYEVA NOZIMA ABDUALI QIZI MO'MINOVA SHOHIDA IZZATILLAEVNA	86
INNOVATSION JARAYONLAR VA UNING BUGUNGI TA'LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI	
BOYXO'ROZOV ANVAR ULUG'MURODOVICH TURGUNBOYEV MIRZABEK RUSTAMBEK O'G'LÌ	90
FIZIKA FANINI O'QITISH UCHUN AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI	
GADAYEVA MUNIRA MUXAMEDOVNA XXI ASR KÓNİKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATSİYALASHGAN TA'LIMNING MUAMMO VA YECHIMLARI	94
KURBONOVA B.M AESTHETIC PERCEPTION IS A PRODUCT OF ARTISTIC THINKING	98
БАБАЕВ КАМИЛЖАН КАДИРЖАНОВИЧ БАБАЕВА ГУЛБАХОР АБДУРАСУЛОВНА	103
ПЧЕЛИНАЯ АПТЕЧКА В РАБОТЕ МЕДИЦИНСКОЙ СЕСТРЫ	
НАЖМИДДИН НИЗОМИДДИНОВ	110
"БОБУРИЙЛАР СУПОЛАСИ" АТАМАСИ ТАҲЛИЛИ ORZIQULOVA CHAROZ RAXMATOVNA	113
THE PSYCHOLOGICAL IMPACT OF EMOTIONAL STATES AND ANTHROPOMETRIC MEASUREMENTS ON SELF-PERCEPTION CH.R.ORZIQULOVA	
O'SMIRLARNI O'Z-O'ZIGA MUNOSABATINI INKLÝUZIV TA'LIMDA INOBATGA OLİSH.	118
MUQADDAS HOJIMURODOVA G'ARB OLIMLARINING JANUBIY OSIYO YADROVIY XAVFSIZLIGIGA OID TADQIQOTLARI	121
N.SH. RUZMATOVA OILA MUHITINING MUVAFFAQIYATGA INTILISH MOTIVATSİYASIGA TA'SIRI	124
РАДЖАБОВ М. М НОРОВ А. У	127
К ВОПРОСУ ДИАГНОСТИКИ В ОПРЕДЕЛЕНИИ ТАКТИКИ ХИРУРГИЧЕСКОГО ЛЕЧЕНИЯ ТРАВМ ГРУДОПОЯСНИЧНОГО ОТДЕЛА ПОЗВОНОЧНИКА	

“YALQOVLIK” KONSEPTINING INGLIZ VA O’ZBEK MILLIY MADANIYATIDA IFODALANISH USULLARI

Tursunov Mirzo Mahmudovich

BuxDU, Ingliz tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Rahmatullayeva Anora To’lqin qizi

BuxDU, Lingvistika: ingliz tili mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotation. This article provides general information about proverbs, phraseological units and aphorisms which are lexical units expressing the concept of laziness in English and Uzbek languages, and the topic is clarified through the analysis of examples.

Key words: linguoculturology, culture, cognitive linguistics, concept, lexical units, proverbs, aphorisms, laziness, hard work.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o’zbek tillarida “yalqovlik” tushunchasini ifoda etuvchi leksik birliklar hisoblangan maqol, masal va aforizmlar haqida umumiylar ma’lumot beriladi hamda misollar tahlili orqali mavzu yoritib beriladi.

Kalit so’zlar: lingvomadaniyatshunoslik, madaniyat, kognitiv tilshunoslik, konsept, leksik birliklar, maqollar, hikmatli so’zlar, yalqovlik, mehnatsevarlik.

Bugungi kunda tilshunoslik sohasida ko’plab yangi yo’nalishlar paydo bo’lmoqda. Xususan, lingvokulturologiya so’nggi o’n yilliklarda rivojlanib kelayotgan antroposentrik paradigmangin mahsulidir. Lingvokulturologiya tilni madaniy hodisa sifatida o’rganadi. Til madaniyat bilan chambarchas bog’liq ya’ni til madaniyat ta’sirida o’sadi, rivojlanadi va uni ifodalaydi. Ushbu g’oya asosida XX asrning 90-yillarida tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida lingvokulturologiya paydo bo’ldi.¹¹ Lingvokulturologiya Yu.S.Stepanov, A.D.Artyunova, V.V.Maslova va boshqa ko’plab tadqiqotchilarning asarlari bilan bog’liq holda paydo bo’ldi. Biroq bu sohaning shakllanishi haqida gapirliganda ko’pchilik tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.F.Gumboltga borib taqaladi deya ta’kidlashadi.¹² Lingvokulturologiya sohasi uchun muhim o’rganish obyekti bu- konseptdir. Ushbu atama 1928-yilda rus tilshunosi Askaldov tomonidan qo’llanilgan. U konseptga quyidagicha ta’rif beradi: “bu bir tur yoki boshqa turdagи tushunchalar haqida fikrlash jarayonini o’zida aks ettiradigan birlikdir”.¹³ Konsept tushunchasining tilshunoslik istemoliga kirishi ingliz olimlari Cheyf, R.Jakendoff¹⁴, Lakofflarning asarlari bilan bog’liq. Konsept atamasi lotincha “conceptus” so’zidan olingan bo’lib “tushuncha” degan ma’noni ifodalaydi. Kognitiv tilshunoslik atamasi sifatida konsept- bizning tafakkurimizdagi aqliy va

¹¹ Maslova V.A. Linguoculturology. M.Academy, 2004.

¹² Vorobyov V.V. Linguoculturology (theory and methods) -M. Academy, 2008.

¹³ Аскольдов С.А. Концепт и слово// Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология.-М:Academia. 1997.-С.267-280

¹⁴ Ray Jakendoff. What is a concept, that a person may grasp it. Program in Linguistics and Cognitive science Brandies University Watham. 1989.

psixik resurslarning inson bilim va malakalarida aks ettiradigan tushunchadir.¹⁵ Biroq lingvokuturologiya atamasi sifatida u madaniyat elementlaridan birining kishi tafakkurida shakllangan shaklidir, xuddi shu shaklda esa madaniyat kishining mental dunyosiga kirib boradi. Demak, konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o'ziga xos jihatlarini ifodalaydi.

Lingvokuturologiya ayni bir xalq madaniyatiga bog'liq har jabhani til orqali o'rganadi. Xususan, xalqlarning o'zligini ko'rsatuvchi maqollar, xalq donishmandlarining hikmatli so'zлari, rang-barang ma'noga ega iboralar va boshqalar. Quyida biz "yalqovlik" konseptining ushbu leksik birliklar yordamida ingliz va o'zbek tillarida ifodalanishini, ulardagi mazmun va mohiyatni yoritamiz.

Ma'lumki, maqollar xalqlarning madaniy merosidir. Ularda xalqning barcha o'y-fikrлari, dunyoqarashi, turmush tarzi, fe'l-atvori va e'tiqodi aks etadi. Har bir millat o'ziga xos tavsiflarga ega bo'lib, bu ularning maqollariga ta'sir etmay qolmaydi. Tilshunoslikda maqollar bilan ishlashda asosan ularning semantik xususiyatlariga to'xtalish ishning muhim qirralarini ochib beradi. O'zbek tilida ma'no-mazmun jihatdan mehnat va mehnatsevarlik haqidagi maqollar juda ko'p uchraydi. Mehnat qilib obro' topish, o'z ehtiyojlarini halol mehnat ortidan qoplay bilish nafaqat qadim zamonda balki hozirgi kunda ham p'z isbotini topgan. O'zbek millatida mehnatsevarlik qanchalik ulug'lansa, yalqovlik shunchalik qoralanadi.

Masalan, Ish ishtaha ochar,

Dangasa ishdan qochar.

Ish oshga tortar,

Yalqovlik- boshga.

Mehnat kishini boqar,

Yalqovlik o'tga yoqar.¹⁶

Ingliz madaniyatida ham yalqovlik qattiq qoralanadi va millatning zararli odatlari qatoriga kiritiladi. Buni ushbu misollar orqali bilib olamiz:

"The labourer is worthy of his hire"¹⁷ ya'ni "Ishlab topganining- osh, Ishlamay topganining- tosh", "He that will not work shall not eat" o'zbek tiliga "Ishlamagan tishlamas, Ishyoqmasga kun kulmas"¹⁸ deb tarjima qilsak bo'ladi.

Yuqorida maqollarda ishyoqmas, dangasa insonlar tasvirlangan bo'lib, yalqovlik qilgan odamda rizq bo'lmasligi va uning bir kuni ham to'qchilikda o'tmasligi tasvirlangan. Maqollardan shu narsa anglashiladiki, ingliz va o'zbek tillarida yalqovlik illati deyarli bir xil talqin qilinadi.

Ingliz va o'zbek tillarida ifodalangan maqollar ma'no jihatdan teng bo'lgani bilan ularda ishlatiladigan ayrim so'zlar shu tilga oid lingvokulturemalar bo'lib, ular har ikkala tilning faqat o'ziga xos bo'lgan jihatlarini ifodalaydi. Misol tariqasida dinlararo tushunchalarga to'xtalsak, u qaysi din bo'lmasin barchasida jannat, do'zax, farishta, shayton konseptlari mayjud. Islom dinida shayton, do'zax

¹⁵ Safarov Sh.Kognitiv tilshunoslik.Sangzor nashriyoti.Jizzax-2006

¹⁶ Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollar. T.Sharq, 2005.

¹⁷ <https://proverbicals.com>

¹⁸ <https://n.ziyouz.com>

tushunchalari salbiy bo'yodkor so'zlar bo'lib, salbiy ma'noda ishlataladi. Xo'sh, bu tushunchalar ingliz madaniyatida qanday qabul qilinadi? Buni aniqlash uchun quyidagi misolni ko'rib chiqamiz:

The Devil finds work for the idle hands to do.¹⁹

(Shayton bo'sh qo'lga ish topib beradi)

Bu maqolning o'zbekcha ekvivalenti sifatida "Dangasa boshin yesin, illatning g'amin yesin" maqolini keltirish mumkin. Maqol ma'nosidan anglashiladiki, dangasa insonlar shayton yo'lidan yurib hech ish qilmaydi va jamiyat ko'z o'ngida u bir shayton kabidir. Ushbu ingliz maqolida ham shayton salbiy ma'noda ishlatalgan, demak, ingliz va o'zbek madaniyatida ushbu tushunchalar bir xil ma'no ifodalaydi ya'ni yomon illatlar: dangasalik, aldoqchilik kabilarni ifodalashda shayton obrazidan foydalanilsa, mehnatsevarlik, rostgo'ylik kabi fazilatlar Farishta timsoli orqali maqol va matallardan joy oladi.

Maqollardan tashqari yalqovlik tushunchasini yoritishda aforizmlardan ham foydalaniadi. Yunonchadan tarjima qilingan aforizm "ta'rif" degan ma'noni anglatadi va lakonik unutilmas shaklda aytigan yoki yozilgan va boshqa odamlar tomonidan qayta-qayta takrorlangan asl to'liq fikrdir. Aforizm atamasi ilk marotaba mashhur tabib Gippokrat tomonidan tadbiq etilgan bo'lib, uning "Kitob al-Fusul" ("Aforizmlar") tibbiy risolasi shunday nomlangan. Aforizmlar XX asrning boshlarida tilshunoslikning o'rganish obyekti sifatida, turli xil mazmun va shaklga xos nasriy matn tarzida tasniflashga bo'lgan urinishlar asnosida o'rganila boshlangan. Adabiy-falsafiy va adabiy-badiiy oqimlar ta'siri ostida aforizm badiiy matn elementi sifatida ko'rib chiqilgan. Aforizmni aynan shunday mazmunda

zamonaviy tilshunoslikda tushunish ham hozir juda keng tarqalgan. Aforizmning lingistik xususiyatlari 1970- yillardan boshlab tilshunoslarning e'tiboriga tusha boshladi.

Aforizmlar orqali yalqovlik konseptini tahlil qilishda ingliz va o'zbek tillarida ushbu tushunchaga xalqning munosabatini bilib olish mumkin. Quyida shunday aforizmlarni tahlil qilamiz.

Yevropaliklar Avitsenna deb ataydigan afsonaviy Abu Ali Husayn ibn Sinoning mashhur "Tibboyot ilmi risolasi" asarida barcha kasalliklar sababchisi aynan dangasalik ekanligi haqida o'z fikrlarini bayon etgan va shunday degan:

"Bekorchilik va befarqlik nafaqat jaholatga sabab bo'ladi, balki ular ayni paytda kasallikning sababidir".

Bilamizki, inson tanasidagi kasalliklar ma'lum bir tashqi ta'sirlar natijasida vujudga keladi, biroq muallif bekorchilik va yalqovlik ham kishidagi bir kasallik ekanini ta'kidlaydi. Albatta, ushbu fikrlar o'rinnlidir, chunki, dangasalik ayni bir kasallik sifatida insondagi boshqa yaxshi sifatlarni ham yemirib, uni jamiyatning eng qoloq kishisiga aylantirib qo'yadi.

Mashhur adib Shukrullo Yusupov o'zining "Javohirlar sandig'i" nomli asarida "Dangasalik- bu yomon dard, buning nomini o'zini- o'zi aldash deyiladi"²⁰ degan

¹⁹ Karomatova K.M. va Karomatov H.S. Proverbs. Maqollar. Toshkent, 2000.

jumlalarni keltirib o'tadi. Ya'ni, dangasalikni bir dardga qiyoslab bu orqali inson nafaqat boshqalarni balki o'zini aldashi mumkinligiga ishora qiladi.

Ingliz adiblaridan V. Shekspir o'zining "The Two Gentlemen of Verona" asarida inson yoshlik davrini yalqovlikda o'tkazmasligi kerakligini ta'kidlab shunday deydi:

I rather would entreat thy company
To see the wonders of the world abroad,
Than, living dully slaggardized at home,
Wear out thy youth with shapeless idleness.²¹

Asardan olingan ushbu parchada, asar qahramoni tomonidan yoshlikdagi bu yalqovlikni olib tashlab, o'rniga dunyo g'aroyibotlarini ko'rmoq uchun menga qo'shil deya xitob qilgani tasvirlangan. Darhaqiqat, inson umrini ishyoqmaslik qilib behuda sarflamasligi kerak, aksincha, mehnat qilib, halol yashab dunyoda ortidan yaxshi nom qoldirish uchun harakat qilishi kerak.

Yoki Benjamin Franklin tomonidan aytildiyan yana bir aforizmga nazar solsak: "Idleness is the Dead Sea that swallows all virtues" ya'ni yalqovlik o'lik dengiz kabi barcha yaxshi fazilatlarni yutib yuboradi, dangasalik bor joyda insonning yaxshi tomonlari yo'qolib boradi degan fikrni aytib o'tgan. "Dead Sea" ya'ni O'lik dengizida mineral tuzlar konsentratsiyasi yuqoriligi sabab biror tirik mavjudot bu yerda yashay olmaydi, shuning uchun, dengiz tinch, hech bir harakat kuzatilmaydi. Xuddi shunday, dangasalik ham qaysi bir jihatlari bilan shu dengizga qiyoslanib, hayotda harakat qilmay, intilmay yashash bora-bora insondagi boshqa bir insoniy fazilatlarini ham yo'qqa chiqarishi ushbu aforizmdan anglashiladigan ma'nodir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "yalqovlik" konseptini yoritib berishda, ingliz va o'zbek millatlarida ushbu salbiy illatga qanday munosabat bildirilishini ko'rsatib berishda xalqlarning nodir durdonalari bo'lgan maqollar muhim rol o'ynaydi. Chunki, maqollar o'sha til egasi bo'l mish xalqning tarixiy, ma'naviy va moddiy madaniyati ko'zgusi ekaniga guvoh bo'lamiz. Shu sababli, turli til maqollarini qiyosiy o'rganish millatning o'ziga xos madaniy va milliy qirralarini ochishga yordam beradi. Har ikki tildagi maqollarni qiyosiy tahlil qilish jarayonida xalqning mentalitet va milliy xarakteri asosiy yetakchi hisoblanadi. Shu o'rinda ingliz va o'zbek xalqining o'ziga xos mentaliteti va urf-odatlaridan kelib chiqqan holda tildagi maqollar ixcham va ifodali tarzda xalqlarning milliy o'zligini ko'rsata oladi. Xususan, yuqorida yalqovlik haqidagi maqollarning ikkala millatdagi misollarini tahlil qilar ekanmiz, ikkala tilda ham ushbu tushunchaga nisbatan salbiy munosabat yaqqol ko'rinish turibdi. Bundan tashqari aforizmlar ya'ni mashhur shaxslar tomonidan aytildan hikmatli so'zlar ham ingliz va o'zbek tillaridagi yalqovlik konseptining ushbu xalqlar madaniyatida qanday qabul qilinishi haqida ma'lumotlar beradi. Aforizmlar bir insonning hayotiy tajribalari asosida aytildan fikrlardir. Shuning uchun, yuqorida tahlil qilingan aforizmlardan shuni bilish mumkinki, barcha buyuk insonlar faqatgina mehnat ortidan ulkan

²⁰ Shukrullo. Javohirlar sandig'i. T. 1983.

²¹ W.Shakespeare. The Two Gentlemen of Verona. 1593.

yutuqlarga erishganlari va dangasalik ularning eng katta dushmanlari ekanligini ta'kidlashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Maslova V.A. Linguoculturology. M.Academy, 2004.
2. 2. Vorobyov V.V. Linguoculturology (theory and methods) -M. Academy, 2008.
3. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. T.Sharq, 2005.
4. Rasulov Zubaydullo Izomovich. (2022). On the Basis of Information-Discursive Analysis. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 18. <https://doi.org/10.21070/ijins.v18i.621>.
5. Izomovich, R. Z. ., & Mohinur, N. . (2023). TIL O'QITISHDA MANIPULYATSIYANING O'RNI VA MUHIM AHAMIYATI. *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 312–314. Retrieved from <https://conferenceseries.info/index.php/online/article/view/1079>.
6. Tursunov, M. M. (2016). A comparative analysis of teacher-centered and learner-centered classes. *Mіжнародний науковий журнал*, (6 (3)), 65-67. [https://www.irkbis-nbuv.gov.ua/cgi-bin/irkbis_nbuv/cgiirbis_64.exe?C21COM=2&I21DBN=UJRN&P21DBN=UJRN&IMAGE_FILE_DOWNLOAD=1&Image_file_name=PDF/mnj_2016_6\(3\)_19.pdf](https://www.irkbis-nbuv.gov.ua/cgi-bin/irkbis_nbuv/cgiirbis_64.exe?C21COM=2&I21DBN=UJRN&P21DBN=UJRN&IMAGE_FILE_DOWNLOAD=1&Image_file_name=PDF/mnj_2016_6(3)_19.pdf).
7. Mansurovna, Z. S., & Mahmudovich, T. M. (2023, May). PHRASEOLOGICAL UNITS EXPRESSING FEELINGS AND EMOTIONS. In *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes* (pp. 140-143).
8. Mahmudovich, T. M., & G'affurovna, H. N. (2023, May). FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIYAT FANI BILAN BOG'LQLIK JIHATLARI. In *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes* (pp. 164-166).
9. Maxmudovich, T. M. ., & Asrorovna, E. S. . (2023). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI FRAZEOLOGIK OLAMI TASVIRI TAHLILI. *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 274–277. Retrieved from <https://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/1067>.
10. Saidova Zulfizar Khudoyberdievna Questioning techniques in teaching English // Достижения науки и образования. 2018. №5 (27). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/questioning-techniques-in-teaching-english>.
11. Zulfizar Khudoyberdievna, S. . (2022). THE MAIN FEATURES OF TRANSLATION OF PHRASEOLOGY FROM ENGLISH INTO UZBEK. *Scientific*

Impulse, 1(3), 523–526. Retrieved from <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/1024>.

12. Tursunov, M. (2022). A INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MUBOLAG'AGA ASOSLANGAN BA'ZI BIR FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOKOGNITIV TAHLILI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 19(19).
13. Tursunov, M. (2023). " ANALYSIS OF NEW LEXICAL UNITS'EMERGENCE IN PUBLICISTIC TEXTS ON THE INTERNET PLATFORM. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 31(31).
14. Tursunov, M. M., & Sanayev, N. N. (2023). G. HIRSUTUM L VA G. BARBADENSE L. NAV VA TIZMALARIDA TUKLILIKNING FENOTIPIK KO'RINISHI. *Академические исследования в современной науке*, 2(19), 44-51.<http://econferences.ru/index.php/arims/article/view/7830>.
15. Makhmudovich, T. M. (2023). A LINGUISTIC VIEW OF THE TERM "CONCEPT" AND ITS ROLE IN MODERN COGNITIVE LINGUISTICS. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 1(10), 8-14. <https://interonconf.org/index.php/ind/article/view/6062>.
16. Askarovich, H. A. (2022, January). So'z Ma'nolari Intensivligi. In *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes* (pp. 13-15).
17. Askarovich, H. A. (2022). SOME COMMENTS ON THE STYLISTIC REPETITION. *JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 8 (1), 87–91.
18. Askarovna, S. M., & Djurabayevna, D. N. (2019). Some principles of the formation and development of ethical terms in the English language in the XVI-XVIII centuries. *International Journal on Integrated Education*, 2(6), 31-39.
19. Shukurova, M. A. (2017). Coherence and cohesion as essential parts in effective writing. *Міжнародний науковий журнал Інтернаука*, (1 (1)), 143-145.
20. Шукрова, М. А. (2021). Анализ специальной лексики английского языка XVI века по аспектам терминологичности. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 4(2).
21. Askarovna, S. M. (2021, March). Comparative investigation on the semantic meaning of some terms of ethics of the XVI-XVII centuries. In *E-Conference Globe* (pp. 285-287).
22. Shukurova, M. A. (2017). Useful strategies in teaching grammar in english language classes. *Міжнародний науковий журнал Інтернаука*, (1 (1)), 146-148.
23. Askarovna, S. M. (2021). Historical background on the systematization of the vocabulary of ethics. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 25-29.
24. Шукрова, М. А. XVI-XVIII АСРЛАРДА ИНГЛИЗ ТИЛИДА ЭТИКА АТАМАЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИГА ДОИР БАЪЗИ МАСАЛАЛАР НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ЭТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ XVI-XVIII ВЕКОВ SOME ISSUES ON THE DEVELOPMENT OF TERMS OF ETHICS IN THE. *ANIQ VA TABIIY FANLAR*, 165.

25. Шукрова–БухГУ, М. А. (2020). КОРРЕЛЯЦИЯ СОЗНАНИЯ, ЯЗЫКА И СТИЛЯ НАУЧНО-ФИЛОСОФСКОГО ИЗЛОЖЕНИЯ ПЕРИОДА XVI-XVII ВЕКОВ. ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЧЕТ ТИЛЛАРНИ ЎРГАНИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ Халқаро илмий-амалий анжуман 5-6 март 2020 йил, 597.